



MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI O'RTASIDAGI MUNOSABATLARNI TARTIBGA SOLISHNING HUQUQIY JIHATLARI

Sergaziyev Temurxan Sribayevich

Xalqaro qozoq turk universiteti

Xuquqshunoslik yo'nalishi magistranti.

temurxansts@bk.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17189268>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 18- sentabr 2025 yil

Ma'qullandi: 20- sentabr 2025 yil

Nashr qilindi: 24- sentabr 2025 yil

KEYWORDS

Markaziy Osiyo, davlatlar, globallashuv, jarayonlar, o'rtasidagi munosabatlar, tartibga solish, huquqiy jihatlari, jo'g'rofiy, siyosiy, iqtisodiy.

ABSTRACT

Mazkur maqolada Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning huquqiy jihatlari doir masalalar tahlil etilgan. Shuningdek, mazkur maqolada Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik, tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, xalqaro terrorizm, separatizm va ekstremizmning barcha ko'rinishlariga, shuningdek narkotrafik va ommaviy qirg'in qurollarining tarqalishiga qarshi hamkorlikda kurashish masalalari ham olib borilganligi yuzasidan ham fikirlar berib o'tilgan.

Jahon tajribasiga ko'ra, davlatlararo aloqalarning rivojlanishida hududning demografik vaziyati (aholi soni va o'sishi, takror barpo bo'lishi, milliy va yosh tarkibi, mentaliteti, migratsiya, mehnat resurslari va bandlik darajasi, b.) ham muhim ahamiyatga ega. Demografik salohiyati bo'yicha

O'zbekiston Markaziy Osiyo geosiyosiy mintaqasida yetakchi davlatdir.

Har qanday mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalari uning xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtiroki bilan ham belgilanadi. Bunda mamlakatning xo'jalik ixtisoslashuvi muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra davlatlarning tashqi savdo tarkibi shakllanadi va savdo-iqtisodiy aloqalari amalga oshiriladi.

XXI asrda zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida yuz berayotgan yangi tendensiyalar, jumladan, jahon globallashuv jarayonlarining shiddat bilan rivojlanib borishi sharoitida insoniyat oldida yangi tahdid va xavf-xatarlarning yuzaga kelishi hamda ularning keng tarqalishi kuzatilmoqda. Shu ma'noda Markaziy Osiyo mamlakatlari manfaatlari hamda xavfsizligining kafolati sifatida mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi istiqloлга erishgandan so'ng, mamlakat manfaatlariga mos keladigan, uning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tiborini mustahkamlashga xizmat qiladigan, Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik, tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, xalqaro terrorizm, separatizm va ekstremizmning barcha ko'rinishlariga, shuningdek narkotrafik va ommaviy qirg'in qurollarining tarqalishiga qarshi hamkorlikda kurashish

hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan o'z tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqdi va uni og'ishmay hayotga tadbiri qilib kelmoqda¹.

Globalashuv davrida vujudga kelayotgan global va mintaqaviy tahdidlar jahon hamjamiyatining e'tiborini o'ziga qaratib, ularga qarshi kurashishda jahon mamlakatlarning hamkorlikda faoliyat yuritishi va global xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan choralarni amalga oshirishda dolzarb masalaga aylanib kelmoqda.

Markaziy Osiyo o'zining boy tabiiy resurslari, strategik joylashuvi, iqtisodiy, transport, logistika va boshqa muhim sohalardagi imkoniyatlari bois, global va mintaqaviy yirik davlatlarning diqqat markazida bo'lib kelgan.

O'zbekiston, o'z navbatida, Markaziy Osiyo davlatlari, shuningdek, Afg'oniston bilan chegaradoshligi va qulay geosiyosiy ustunligi sababli muhim ahamiyatga ega bo'lib, mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jarayonlar, qolaversa, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash masalalarida ham alohida o'rin tutadi.

Shu nuqtayi nazardan, Markaziy Osiyo mintaqasi doim O'zbekiston tashqi siyosatining diqqat markazida bo'lib kelgan. 2017–2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasiga ko'ra, O'zbekiston Markaziy Osiyoni keng imkoniyatlar makoniga aylantirish orqali "xavfsizlik, barqarorlik va yaxshi qo'shnichilik" muhitini yaratish bo'yicha o'zining mintaqaviy siyosatini faol amalga oshirib kelmoqda².

Global pandemiya boshlanishi bilan oq, O'zbekiston rahbariyati mintaqaviy hamkorlik tarafdori ekanligini yana bir bor namoyon etgani holda, Markaziy Osiyoda "COVID-19" pandemiyasiga qarshi birgalikda kurashishga chaqirdi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari koronavirus infeksiyasiga qarshi kurashish borasidagi umumiy masalalarda tajriba va axborot almashinuvini qo'llab-quvvatlashi bilan o'z mintaqaviy hamjihatligini namoyish etdi. O'zbekiston tomonidan Qirg'iziston va Tojikistonga, Qozog'istondan esa Qirg'izistonga yuborilgan insonparvarlik yordami mintaqaviy hamkorlik va uning afzalliklarini yaqqol namoyon etdi.

O'z navbatida, 2021-yilning 12-may kuni Xitoyning Sian shahrida "Markaziy Osiyo – Xitoy" (S5+S) tashqi ishlar vazirlarining ikkinchi uchrashuvi bo'lib o'tdi. Unda vazirlar o'zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlash, transport va savdo aloqalarini rivojlantirish, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash va muammolarni birgalikda hal qilish uchun iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirish masalalarini muhokama qildilar. Shuningdek, Afg'onistondagi vaziyat va ushbu mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani tiklashga ham alohida e'tibor qaratildi.

Ta'kidlash joizki, "so'nggi 30 yil ichida AQSHning Markaziy Osiyoga nisbatan siyosatidagi izchillik mintaqaning mustaqilligini tan olish va qo'llab-quvvatlashga asoslangan". Shuning uchun yaqin yillarda "S5+1" formati Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy, investitsiyaviy, gumanitar, mintaqaviy hamkorlik va xavfsizlik sohasidagi munosabatlarni jadallashtirish uchun hamkorlikning samarali mexanizmi sifatida xizmat qilishi mumkin.

Xitoy – Rossiya "5+1" formati nisbatan yaqinda joriy qilingan bo'lsa-da, barcha tomonlarning samarali hamkorlik qilishga tayyorligiga qarab, ijobiy natijalarni berishi kutilyapti.

¹ Saidolimov S. Umumiy taraqqiyot va xavfsizlik sari. // Jamiyat va boshqaruv. -T.: O'zbekiston, 2010.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. Toshkent 2017-yil. 7-fevral.

Shu bilan birga, "C5+1" hamkorlik formati doirasida qo'llab-quvvatlanayotgan CASA-1000 (Markaziy va Janubiy Osiyo elektr ta'minoti loyihasi) va Turkmaniston-Afg'oniston-Pokiston-Hindiston tabiiy gaz quvuri loyihalari moliyalashtirish va Afg'onistondagi xavfsizlik bilan bog'liq masalalar tufayli hozircha amalga oshirilmadi.

Qayd etish joizki, jo'g'rofiy, siyosiy va iqtisodiy afzalliklari evaziga O'zbekistonning Afg'onistonda tinchlik o'rnatish jarayonidagi o'rni va sa'y-harakatlari muhim ahamiyat kasb etadi. AQSH va NATO o'z qo'shinlarini Afg'onistondan olib chiqish to'g'risidagi qaroridan so'ng yuzaga kelgan siyosiy noaniqliklarga qaramay, O'zbekiston mintaqaviy va global hamkorlar bilan o'zaro barqarorlikni ta'minlashdagi izchil aloqalarni o'rnatib kelmoqda. Bundan tashqari, O'zbekiston Afg'onistonni Markaziy Osiyoning ajralmas qismi deb hisoblab, mamlakatni mintaqaviy iqtisodiy jarayonlar va infratuzilma loyihalariga jalb etishga ko'maklashmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, "O'zbekiston-AQSH-Afg'oniston" uch tomonlama uchrashuvlari, "O'zbekiston-Yaponiya-Afg'oniston", "O'zbekiston-Xitoy-Afg'oniston" rasmiy muzokaralarining o'tkazilishi, shuningdek, Afg'oniston delegatsiyalarining "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy aloqadorlik. Taklif va imkoniyatlar" mavzusida yuqori darajadagi xalqaro konferensiyadagi ishtiroki, "Hindiston-Markaziy Osiyo" muloqoti va boshqa muhim jarayonlarga jalb qilinayotganligi O'zbekistonning Afg'oniston va Markaziy Osiyo masalalaridagi konstruktiv rolini namoyon etadi. Darhaqiqat, bugungi kunda Afg'onistondagi vaziyatni tinch yo'l bilan hal qilishda birgalikdagi mintaqaviy strategiya va qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega.

Markaziy Osiyo va Xitoy Xalq Respublikasi" formati doirasida Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarining o'zaro hamkorligini xalqaro huquqiy tartibga solish va uni yanada rivojlantirish tendensiyalarni kengayib borishiga olib keldi.

Ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligini tadqiq etishda mazkur sohada erishgan yutuqlarni tahlil etish, umumlashtirish ular asosida xulosa chiqarish bitiruv malakaviy ishning dolzarbligini asoslaydi.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvini ta'minlashda Markaziy Osiyo submintaqasidagi hududiy xavfsizlik muammolari ham butun dunyodagi kabi terrorizm, ekstremizm, ommaviy qirg'in qurollarining tarqalishi, yadro quroli xavfining ortishi, narkobiznes, atrof muhitning buzilishi, global isish, o'rmonlarning kesilishi, pandemik kasalliklarning avj olishi va boshqa tahdidlar bilan ifodalanmoqda.

Suv resurslari taqsimoti bilan bog'liq urushlar xavfi ham tobora o'sib bormoqda. Shuningdek, mazkur mintaqada mamlakatlari ichki, endogen xarakterga ega bo'lgan ko'plab eski va yangi muammolar uchun ham hali munosib javob topa olishayotgani yo'q.

Jumladan, ichki siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik, millatlararo ziddiyatlar, mintaqaviy elita va davlatlar boshqaruvidagi tuzilmalar o'rtasida mavjud qarama-qarshiliklar, aholining qashshoqlashishi, aholi daromadlaridagi farqning ortishi va ijtimoiy muvozanatning kuchayishi, yoshlar orasida ishsizlikning yuqori darajaga yetishi, korrupsiyaning avj olishi, davlat tuzilmalarining past samaradorligi, har qanday siyosiy beqarorlik yuz berganda boshini ko'tarishga tayyor va dunyoviy hukmron boshqaruvlarni obro'sizlantirish uchun ijtimoiy muammolardan faol foydalanuvchi radikal islomizm, giyohvand moddalar savdosi va diniy ekstremizm ta'sirining o'sishi hamda oliy siyosiy hokimiyatning davomiyligi muammosi (chunki Markaziy Osiyoning aksariyat davlatlarida bunday davomiylik uchun aniq belgilangan

va o'rnatilgan qoidalar mavjud emas) kabilar bugungi kunda hudud tinchligi uchun asosiy tahdid manbalari sifatida namoyon bo'lmoqda³.

Davlatlararo mojarolar bilan bog'liq qarama-qarshiliklar ham davom etmoqda. Bu, birinchi navbatda, suv va energetika resurslari bo'yicha raqobat tufayli yuzaga kelgan "energiya delimitatsiyasi" muammosidir. Xususan, Amudaryo va Sirdaryoning transchegaraviy suv yo'llarida – Tojikistonda Rog'unGESi va Qirg'izistonda Qambarota GESlari qurilishi bilan bog'liq keskinliklar yuzaga keldi. Ushbu loyihalar, ayniqsa O'zbekistonni tashvishga solmoqda, chunki mazkur GESlar qurilishi natijasida daryolardagi suv oqimining pasayishi ehtimoli juda yuqori.

Ikkinchidan, hal qilinmagan chegara mojarolari Markaziy Osiyoda xavfsizlikning jiddiy muammolariga aylanmoqda. Ushbu tortishuvlar mintaqaning aksariyat respublikalariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilmoqda. O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikistonda etnik xilma-xillikning yuqoriligi, umumiy tan olingan chegaralarning yo'qligi, yerlarning yetishmasligi va eng muhimi, qurg'oqchil iqlim sharoitida suv resurslarining kamayib borishi takrorlanib turuvchi to'qnashuvlarga alohida ijtimoiy-iqtisodiy tus bermoqda.

O'zbekistonning tashqi siyosiy tashabbuslari butun Markaziy Osiyo uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. O'zbekiston Markaziy Osiyodagi boshqa davlatlar uchun mavjud muammolarni birgalikda hal qilish g'oyasidan iborat kun tartibini ilgari surmoqda. O'zbekiston bugungi kunda Markaziy Osiyodagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy, mafkuraviy jarayonlarni barqarorlashtiruvchi davlat sifatida o'z faoliyatini olib bormoqda.

Hozirgi paytda Markaziy Osiyoda davlatlararo munosabatlarning yangi tizimi shakllanib, O'zbekiston ushbu tizimda turli xil yo'nalishlar bo'yicha yuqori faollikni namoyon qilmoqda. Natijada mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlarda sezilarli sog'lomlashish belgilari yaqqol ko'zga tashlanmoqda. O'zbekiston Afg'oniston bilan ikki tomonlama aloqalarni sezilarli darajada kengaytirdi, afg'on muammosini hal qilish bo'yicha ko'p tomonlama harakatlarga faol qo'shildi. O'zbekiston Surxon-Puli-Xumri elektr uzatish liniyasi va "Termiz-Mozori Sharif-Peshovar" temir yo'l qurilishi yirik loyihalarini amalga oshirishda faol ishtirok etmoqda.

Termizda Afg'oniston fuqarolari uchun Ta'lim markazi ochilib, hozirgi davrda afg'onistonlik talabalar ushbu Ta'lim markazini bitirib, ulardan ayrimlari Afg'oniston parlamentida, vazirliklari va muassasalarida ishlamoqda, mamlakat oliy ta'lim muassasalarida muallimlik qilmoqda, mustaqil biznesni yuritmoqda. O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi so'nggi yillarda 2 barobar, qo'shma korxonalar soni 4-marta o'sdi. Mamlakatlarimiz Markaziy Osiyoda radiatsiya xavfsizligini ta'minlash, "Barqaror rivojlanish uchun suv" harakatlari, Energetik xartiyaning Ashxobod deklaratsiyasi kabi xalqaro hujjatlarni imzoladilar. Bizning mintaqadagi o'zaro yaqinlashuvimiz va hamkorlikni kengaytirishimizbu zamon talab qilayotgan va orqaga qaytmaydigan jarayon ekanini ta'kidlamochimam, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - U qat'iy siyosiy tanlovga asoslangan bo'lib, chuqur tarixiy omillarga ega va kimningdir manfaatlariga qarshi qaratilgan emas. Bu borada, birlik va jipslikni mustahkamlagan holda, biz izchil va barqaror rivojlanib borayotgan mintaqamizning, demakki, istiqbolli va ishonchli xalqaro sherikning shakllanishiga hissa qo'shmoqdamiz.

³ PavloIgnatiev. Afghanistan: Balancing between Pakistan and Iran. Indian Journal of Asian Affairs Vol. 27/28, No. 1/2 (2014- 2015), pp. 43-62 (20 pages) Published By: Manju Jain <https://www.jstor.org/stable/43857991>

O'zbekistonning tashqi siyosat sohasidagi muhim ustuvor yo'nalishi dunyoning yetakchi davlatlari va xalqaro tashkilotlari bilan strategik sheriklik hamda hamkorlikning muvozanatlangan tizimini shakllantirishdan iborat⁴ bo'lib, bunday yondashuv iqtisodiyotni modernizatsiyalash, barqarorlik va xavfsizlikni qo'llabquvvatlash, Markaziy Osiyoda hamkorlik uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish vazifalarining samarali hal qilinishini ta'minlashdan iboratdir⁵. O'zbekiston Markaziy Osiyoda muhim davlat hisoblanadi va alohida rol o'ynaydi.

Mamlakatning regiondagi muhim ahamiyati xorijiy ekspert va siyosiy doiralar vakillari tomonidan ham e'tirof qilib kelinmoqda. O'zbekiston mintaqadagi barcha qo'shni davlatlar bilan strategik hamkorlik to'g'risida shartnoma tuzgan bo'lib, bu yuqori darajada regional siyosat tuzish imkonini beradi. Ushbu maqsadlarda amalga oshirilayotgan ishlar mamlakatning xalqaro munosabatlar tizimidagi o'rni va rolini mustahkamlashda ham muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonning tashabbuslari Markaziy Osiyodagi barcha mamlakatlarning manfaatlarini hisobga oladi va konsensus tamoyiliga asoslanadi. Toshkentning faol, tashabbuskor va konstruktiv diplomatiyasi tufayli shakllangan mintaqadagi yangi siyosiy reallik Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida keng doirali masalalar bo'yicha o'zaro harakatlarni kuchaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Toshkentda 2019-yil noyabrda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida vujudga keladigan masalalar yechimini muhokamadan o'tkazish to'g'risida kelishuvga erishildi⁶.

Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining konsultativ uchrashuvlarini o'tkazish mintaqada yangi xalqaro tashkilot yoki o'z ustaviga ega va davlat organlaridan yuqori turuvchi biron-bir integratsion tuzilma tashkil etilishini nazarda tutmaydi. Ushbu faoliyat faqat regional rivojlanishning muhim masalalari bo'yicha o'zaro kelishib olishni ko'zda tutadi. O'zbekistonning mintaqa bo'yicha yo'nalishi faollashuvi regional yaqinlashish, ishonch va o'zaro tushunishni tiklash, shuningdek, yig'ilib qolgan masalalarni oqilona muhosilalarga kelish asosida operativ hal qilish yuzasidan allaqachon yetilgan talabga o'z vaqtida va amaliy javob bo'ldi. Oliy darajada o'rnatilgan ochiq va ishonchli muloqot barcha hamkorlik yo'nalishlarini kuchaytirish uchun mustahkam asos yaratdi. O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan siyosiy sohadagi o'zaro hamkorligi faollashuvi bilan bir qatorda savdo-iqtisodiy, transportkommunikatsiya, energetika va madaniy-insonparvarlik sohalaridagi o'zaro manfaatli munosabat va aloqalari ham bir muncha kuchaydi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarning yaxshilanishi mintaqaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga yordam berib, 2017-yil boshidan to hozirgi vaqtgacha O'zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari o'rtasida 300 tadan ko'proq shartnoma, shuningdek taxminan 75 mlrd. dollar summada shartnomalar va bitimlar imzolandi. Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida ekologik, jumladan, suv-energetikaga bog'liq masalalarni hal qilish sohasida oldinga siljishlar kuzatilmoqda.

⁴ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi Toshkent, O'zbekiston, 2022-yil.

⁵ Hamida A., Juraboy Y. COOPERATION IN CENTRAL ASIA AS A PRIORITY DIRECTION OF FOREIGN POLICY OF UZBEKISTAN //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 9. – №. 12. – S. 175-8. Nugmanovna M. A., Akbaraliyeva U. G. FAMILY IS THE BASIS OF SOCIETY AND STATE //Archive of Conferences. – 2021. – T. 22. – №. 1. – S. 28- 31.

⁶ Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. 4-jild, Toshkent, O'zbekiston, 2020 yil.

O'zbekiston Qambar-Ota va Rog'un GESi qurilishi loyihalarida o'z ishtiroki imkoniyatlarini ko'rib chiqishga tayyor ekanligini bildirdi⁷.

"O'zbekiston – Turkmaniston- Eron- O'mon" transport yo'lagining muhim uchastkasini amalga oshirishga start berildi, Amudaryo orqali "Turkmanobod - Forob" temir yo'l va avtomobil ko'priklari ochildi. Ularning ishga tushirilishi "O'zbekistonTurkmaniston - Kaspiy dengizi- Janubiy Kavkaz" yo'nalishi bo'yicha Boku- TbilisiKars hamda Gruziya, Turkiya, Ruminiya va boshqa davlatlarning Qora dengiz portlariga chiqish yo'llari bilan oraliq transport-kommunikatsiya magistralini yaratish g'oyasini amalga oshirish imkonini berdi.

Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida olib borilgan o'zaro muzokaralardan so'ng Xitoy va Markaziy Osiyoni Qirg'iziston orqali bog'lovchi temir yo'l qurilishi bo'yicha jiddiy rivojlanishga erishildi. Dastlabki baholarga ko'ra, ushbu loyiha amalga oshirilganida yuklarni yetkazib berish muddatlari 7-8 sutkaga qisqaradi, Sharqiy Osiyodan Yaqin Sharq va Janubiy Yevropa mamlakatlariga yo'l masofasi 900 km.ga qisqaradi. Hozirgi davrda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida madaniy-insonparvarlik sohasida yaqindan hamkorlikni, do'stona va yaqin qo'shnichilik aloqalarini mustahkamlash va kengaytirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. "Markaziy Osiyo-yagona o'tmish, umumiy kelajak" shiori ostida madaniy gumanitar almashuv platformasining yaratilishi barcha xalqlarimiz manfaatlariga javob beradi, deb o'ylayman, deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - Sizlarning qo'llab-quvvatlashingiz bilan ilm-fan, madaniyat va san'at sohalarda erishgan salmoqli yutuqlari uchun Markaziy Osiyo mukofotini ta'sis etish, shuningdek, universitetlar forumlari va mintaqaviy sport o'yinlarini tashkil etish taklif qilinmoqda. Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash nafaqat mintaqa mamlakatlari manfaatlariga javob beradi, balki uning qo'shni regionlardagi xavfsizlikka ta'siri nuqtayi nazaridan butun Yevrosiyo qit'asining barqaror rivojlanishiga ham ko'maklashadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasi O'zbekistonning yaqin davr ichida rivojlanish ustuvor yo'nalishlarini yana bir marta belgilab berdi, bunda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi tub islohotlar bilan bir qatorda faol tashqi siyosatni amalga oshirish ham nazarda tutilgan.

Yangilangan O'zbekiston Markaziy Osiyoda joylashgan davlatlarga o'zining o'zaro foydali hamkorlikka tayyorligini, milliy manfaatlariga javob beradigan, ochiq, pragmatik va chuqur o'ylangan tashqi siyosat olib borishini amaliy ishlar bilan ko'rsatib kelmoqda⁸. Markaziy Osiyo mintaqasidagi mamlakatlar bilan barcha sohalarda o'zaro do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik ruhidagi munosabatlarni mazmun va sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish bugungi kunda O'zbekiston tashqi siyosatidagi eng muhim masalalardan biridir.

So'nggi yillarda mazkur respublikalar o'rtasidagi keskinlashgan munosabatlar yangi etno-hududiy ziddiyatlarning paydo bo'lishini inkor etmaydi. Ularning ijtimoiy asoslari aholining doimiy o'sishi va qiyin ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga ko'ra shakllanmoqda. Uchinchidan, davlatlararo ziddiyatlar hududda tugallanmagan milliy davlatchilik va davlat mafkuralarini shakllantirishning murakkab jarayonlarini qo'zg'atmoqda. Ularning tarkibiy

⁷ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild, Toshkent, O'zbekiston, 2017 yil.

⁸ Hamida A., Juraboy Y. COOPERATION IN CENTRAL ASIA AS A PRIORITY DIRECTION OF FOREIGN POLICY OF UZBEKISTAN //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 9. – №. 12. – S. 175-8.Nugmanovna M. A., Akbaralievna U. G. FAMILY IS THE BASIS OF SOCIETY AND STATE //Archive of Conferences. – 2021. – T. 22. – №. 1. – S. 28-31.

qismi ko'pincha qo'shnilarga nisbatan hududiy da'volarga yoki davlatning mintaqaviy boshqaruvni qo'lga kiritish uchun qilingan da'volariga aylanmoqda.

Shiddat bilan to'planib borayotgan ichki muammolar bilan bir qatorda tashqi ta'sir va tahdidlar ham Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta'minlashga sezilarli salbiy ta'sir etmoqda⁹.

Shu ma'noda hozirgi kunda ekologiya muammosi inson xayotining tabiiy ravishda davom etishi va uni saqlanib kolishi uchun eng xavfli manba bo'lib qolmoqda. Afsuski, keyingi yillarda tabiatning insonga ko'rsatayotgan mehr-muxabbati va ijobiy ta'siriga nisbatan insonni tabiatga bo'lgan zug'umi, vaxshiyli, tabiat boyliklaridan xo'jasizlarcha foydalanishi va bosh qa salbiy munosabatlari kuchayib ketmoqda. Ana shunday jarayonda dunyodagi hamma davlatlarning o'zaro hamkorligi asosida tabiatni muhofaza qilish va ekologiya masalasiga alohida etibor qaratishini taqozo etadi. Agarda ushbu jarayon shunday davom etadigan bo'lsa turli ekologik muammolar va boshqa tirik mavjudotni jumladan, insoniyat xayotini barbod bo'lishi genefondini butunlay o'zgarib ketishiga, tabiat resurslaridan vahshiy larcha foydalanishga, atrof tabiiy muxitni kattik ifloslanishiga va boshqa xavfli xalokatlarga olib kelishi mumkin.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ekologiya muammosi dunyoviy, global, olamshumul chegara bilmaydigan aksincha o'zaro hamkorlikda hal qilinadigan muammodir. Uning xalkaro xukukiy ekologik asoslari BMTning Inson huquqlari umumjaxon deklaratsiyasida (1948-yil 10-dekabr), BM T Bosh Assambleyasining 1962-yil 14-dekabrdagi "Tabiiy boylik manbalari ustidan ajralmas suverenitet" karorida, " Insonni o'rab turuvchi muhit to'g'risida"

BMTning Stokgolm deklaratsiyasida (1972-yil); Davlatlarning iktisodiy huquq va majburiyatlari xartiyasi (1972-yil), Yu NESKOning umumjaxon madaniyati va tabiat merosini muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya (1972-yil); BMT Bosh Assambleyasining davlatlarning yer tabiatii hozirgi va kelajak avlod uchun saqlab qolishi uchun tarixiy javobgarligi to'g'risidagi rezolyutsiyasi (1974-yil); Tabiat umumjaxon xartiyasi (1982-yil); Tabiiy muhitga nisbatan harbiy yoki har qanday boshqa turdagi vositalardan zararli foydalanishni ta'qiqlash to'g'risidagi konvensiyada (1977-yil); Dengiz huquqi bo'yicha BMT konvensiyasi (1982-yil); Ozon qatlamini muhofaza qilish to'grisidagi Vena konvensiyasi (1985-yil); Xavfli chiqindilarni davlat chegarlaridan tashqariga tashish va ularni chiqarib tashlashni nazorat qilish to'g'risidagi Bazal konvensiyasi (1989-yil), Atrof-muhit va rivojlanish to'grisidagi Rio-de-J aneyro deklaratsiyasi (1992-yil), Iqlim o'zgarishi bo'yicha konvensiya (1993-yil). Ozon qatlamini muhofaza qilish to'g'risidagi 1996-yil Jenevada qabul qilingan Monereal protokolida; Ozon qatlamini muhofaza qilish to'grisidagi Vena konvensiyasi (18.05.1993); Ozon qatlamini yemiruvchi moddalar bo'yicha Monreal protokoliga London tuzatishi (01.05.1998); Ozon qatlamini yemiruvchi moddalar bo'yicha Monreal protokoliga Kopengagen tuzatishi (01.05.1998); Tabiiy muhitga ta'sir ko'rsatuvchi vositalarni xarbiy yoki boshqa yovuz maqsadlarda foydalanishni ta'qiqlash to'g'risida konvensiya (26.05.1993); Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Doiraviy konvensiya (20.06.1993-yil) (Kiot protokoli, 1999-yil); Jiddiy qurg'oqchilikni va/yoki sahroga aylanish jarayonini boshidan kechirayotgan mamlakatlar, ayniqsa, Afrikada sahroga aylanishiga qarshi kurash bo'yicha konvensiya (31.08.1995-yil); Xavfli chiqindilarni transchegaraviy olib o'tish va ularni yo'qotishni nazorat qilish to'g'risidagi Bazal konvensiyasi (22.12.1995); Biologik xilma-xillik to'g'risida konvensiya (06.05.1995); Butun jahon madaniy va tabiiy meroslarini muhofaza qilish to'g'risida konvensiya

(22.12.1995-yil); Yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan yovvoyi flora va faunaning turlari bilan xalqaro savdo to'g'risida konvensiya (01.07.1997); Ko'chib yuruvchi yovvoyi hayvon turlarini saqlash bo'yicha konvensiya (01.05.1998); Xalqaro axamiyatga ega bo'lgan asosan suvda suzuvchi hayvonlar yashash joylari xisoblangan suv-botqoq joylar to'g'risida Ramsar konvensiyasi (30.08.2001) va boshqa xalqaro xukukiy ekologik normalarda o'z aksini topgan.

Yuqorida ko'rsatilgan tamoyillardan tashqari, umuman xalqaro miqyosda davlatlar va fuqarolarning ekologik huquqlarini kafolatlashning yana bir qator tamoyillari ham yuridik adabiyotlarda talqin etilgan¹⁰.

Xulosa qiladigan bo'lsak, hatto fuqarolarning ekologik huquqlarini kafolatlashning xalqaro hamkorlikdagi xususiyatlari ham zamon talabi asosida ko'rsatib tahlil qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muminov A. O'zbekiston va YUNESKOning xalqaro-huquqiy munosabatlari. –Toshkent: 2003.
2. Hakimov R. O'zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 2001.
3. Jo'rayev S. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati va diplomatiyasi. –Toshkent: Akademiya, 2007.
4. Мирзажанов К., Ҳақимов Р. Международное право. – Тошкент: 1993.
5. Одилқориев Х.Т., Очиллов Б.Э. Ҳозирги замон халқаро ҳуқуқи. Дарслик. – Тошкент: ЖИДУ, 2002. –559 б.
6. Одилқориев Х.Т., Раззоқов Д.Х. Сиёсатшунослик. Дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 2008.
7. Тузмухамедов Р., Ҳақимов Р. Основи международного права. Т., 1998.
8. Умароҳунов И.М. Республика Узбекистан и международное договорное право. Тошкент: 1998.
9. Халқаро ҳуқуқ: Маърузалар курси/ Масъул муҳаррир юридик фанлар доктори, профессор А.Саидов. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2012.
10. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти. Асосий омиллар. –Тошкент: БМТнинг Ўзбекистондаги ваколатхонаси, 2001.
11. Муминов А. ЮНЕСКО кафедралари Тинчлик маданияти йўлида. //–Тошкент: Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари, 2000, №4, 60–64 б.
12. Туляганов А. Ўзбекистон Республикаси замонавий халқаро муносабатларнинг ўзига хос хусусиятлари. –Тошкент: Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари, 2007, №2 (38).
13. Бобокулов И. Современные тенденции взаимодействия ООН региональных организаций. –Ташкент: Общественное мнение. Прева человека, 2009, №1 (45).
14. Тиллабоев М. Механизмы ООН по защите прав человека: опыт. Сотрудничества Узбекистана. –Ташкент: Общественное мнение. Прева человека, 2008, №2 (42).

¹⁰ Abdullayeva M .N . Burisva M. Pravovoye regulirovaniye zashity okrujayuшеy s yedy . Huquq. P rava, Law , 2 001 № 3 ,49 -51 str.